

ARABCHA O'ZLASHMALARNING DARIY VA FORS TILLARIDAGI MA'NO HOSILALARI

Karimov Abdulatif Abdug'aforovich

TerDU Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası-o'qituvchisi

e-mail: abdullatif.ghaffarzade@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arabcha o'zlashmalarning dariy va fors tillaridagi ma'no hosilalarining tadqiqiga bag'ishlanadi. Zero hozirgi dariy, fors va tojik tillaridagi arabcha o'zlashmalarning manbasi yagona bo'lishiga qaramay arabcha o'zlashmalar ushbu tillarning har birida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fors va dariy tillaridagi arabcha o'zlashmalarni qiyoslash shuni ko'rsatdiki, birinchidan, bu tillardagi bir xil so'z va atamalarning ma'nolari ko'pincha bir-biriga to'g'ri kelmaydi, ikkinchidan, bir tushuncha uchun fors va dariy tillarida turli arabcha atamalarni olish mumkin.*

Kalit so'zlar: *dariy tili, fors tili, arab tili, o'zlashma, qiyoslash, tushuncha, Eron, Afg'oniston.*

Qariyb 300 yildirki, tillarning o'zaro ta'siri qonuniyatlarini aniqlash, chet so'zlarning o'zlashish sabablari va xususiyatlarini o'rganish, ularning o'zlashgan tillardagi roli va vazifalarini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganib kelinmoqda. Binobarin, dunyodagi mavjud rivojlangan tillarining deyarli hammasida ozmi-ko'pmi o'zlashgan so'zlar, iboralar uchrashi, hatto ayrim tillarining aralashib ketganlik xususiyatlari, avvalo, tilshunoslarning, qolaversa, tilga e'tibori bo'lgan har bir kishining ham diqqatini o'ziga jalb qiladi [10. 11].

Fors, dariy va tojik tillari asli bir til oilasiga mansubligi, aniqrog'i, bir o'zakka egaligi, ularning qadimgi davr qatlami bir xil ekanligi, qolaversa, bu tillar leksik qatlamida o'zlashmalarning mavjud bo'lishiga qaramasdan, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, bu tillardagi so'z va terminlar turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va tijoriy aloqalar natijasida bir-biridan farq qila boshlagan. XII asrdan buyon bu til hozirgi Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlarining umumadabiy tiliga aylandi [1.53]. Afg'onistondagi dariy tili dialektlarini o'rganish faqatgina o'tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlandi. 1978-yildan boshlab dariy tilining rivojlanish jarayoniga ko'p e'tibor berildi. Uning fe'l sistemasi, lug'at boyligining o'sishi, o'zga tillardan kirib kelayotgan siyosiy, texnikaviy, baynalmilal so'zlarning o'zlashtirishi atroflicha tadqiq qilinmoqda. V.V. Belkon [2.16] o'zining nomzodlik ishida hozirgi dariy adabiy tili leksik qatlami rivojlanishida o'zlashmalarning o'rni va ahamiyati haqida tadqiqot olib brogan. L.N. Kiseleva ham o'zining «Очерках по лексикологии языка дари» ishida boshqa o'zlashmalar qatorida arabcha o'zlashmalarni o'rganib chiqqan. Uning ta'kidlashicha hozirgi dariy, fors va tojik tillaridagi arabcha o'zlashmalar yagona manbaga oid bo'lishiga qaramasdan har bir tilda ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Hatto bu tillardagi arabcha o'zlashmalarning tarkib va semantikasida bu o'ziga xoslikni kuzatish mumkindir [3.51]. Belkonning ta'kidlashicha hozirgi dariy tili qardosh fors va tojik tillari o'rtasida arabcha o'zlashmalar soni jihatidan yetakchi o'rinda turadi [2.71] va buni afg'on tilshunoslari ham

tasdiqlashadi. Buning sababi nafaqat arab istilosi va islom dini tarqalishidan so'ng arab tili hukumron bo'lganligi balki XX asrgacha afg'on jamiyatida arab tiliga moyilikning kuchayib borganligi bo'lgan. Bu davr mobaynida arab tilidan dariy tiliga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, harbiy, fan va madaniyat sohalariga oid o'zlashmalar kirib borgan. Dariy va arab tillarining o'zaro turdosh emasliklarini hisobga olsak, arab tilidan ko'p sonli o'zlashmalarning dariy tiliga kirib kelishi, bu tilning leksik qatlami va fonetikasiga ta'sir etmay qolmadi. Richard Frayning aytishicha, agar arabcha o'zlashmalar bo'lmaganida edi, fors-dariy tili bunday buyuklikga erishmas edi, zero pahlaviy davr adabiyoti bilan islomiy davr adabiyotini qiyoslasak juda katta farqni ko'rishimiz mumkin[6.85]. B.Ya. Ostrovskiyning fikricha "arabcha "o'zlashmalar boshqa tillardan kelgan o'zlashmalarga nisbatan bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega va shuning uchun arabcha o'zlashmalar alohida tadqiq etilishi lozim" [4.39]. Arabcha o'zlashmalarning pashtu tiliga o'zlashish jarayoni B.Z. Xolidov[8.195] o'rganib, asosan fonetik, leksik va grammatik usullarni tadqiq etib, pashtu tiliga kirib kelgan arabcha o'zlashmalarni quyidagicha taqsimlaydi:

- arab fathi davrida o'zlashgan elementkar;
- islom dini tarqalish davrida o'zlashgan elementlar;
- afg'onlarning arablar bilan bevosita muloqoti va savdo sotiq jarayonida o'zlashgan elementlar.

Arabcha o'zlashmalar fors tili leksik fondining ham salmoqli qismini tashkil etadi. Biroq hozirgi vaqtda fors tili tarkibidagi arabcha o'zlashmalar soni Eronda o'tgan asr birinchi yarmida boshlangan purizm jarayoni hisobiga ancha qisqardi.

L.S. Peysikov o'zining «Вопросы синтаксиса персидского языка» nomli monografiyasida birinchilardan bo'lib arabcha o'zlashmalarning fors tilida funksional tahlilini o'tkazdi. Bu darslikda u arabcha kesimlar haqida qisqagina ma'lumot berib o'tadi[5.414]. Yu. A. Rubinchik ham o'zining «Персидско-русскому словарь»ida hozirgi fors tilidagi arabcha o'zlashmalar haqida qisqa lekin qimmatli ma'lumotlar keltirgan[6.185].

Tadqiqot davomida arabcha o'zlashmalarning dariy va fors tillarida yana quyidagicha tafovutlari ham aniqlandi:

- dariy tilida arabcha o'zlashma bilan ifoda etiladigan tushunchaning fors tilida arabcha bo'lmagan so'zda ifoda etilishi;
- fors tilida arabcha o'zlashma bilan ifoda etiladigan tushunchaning dariy tilida arabcha bo'lmagan so'zda ifoda etilishi.

Birinchi guruhga misol keltiradigan bo'lsak, 'viloyat' so'zi dariy tilida arabcha ولايت /welâyat/ so'zi bilan ifodalansa, fors tilida استان /ostân/ so'zi bilan ifodalanadi.

بیش از یک هفته است ولایت نورستان در آتش می‌سوزد.

/beš az yak hafta ast ke welâyate nurestân dar âtaš mesuzad/

Nuriston viloyatida bir haftadan ortiq vaqtdan beri yong'in davom etmoqda.

بیشترین ثبت‌نام و احراز شرایط اولیه متقاضیان در استان تهران و کمترین آنها نیز مربوط به شرق سمنان

است.

/bištarin sabte nâm va ehrâze šarâyete avaliyeh motayâziyân dar ostân tehron va kamtarine ânhâ niz marbut be šar'eh semnân ast/

Eng ko'p ro'yxatga olish va ariza beruvchilarning dastlabki shartlari Tehron viloyatida, eng kami esa Sharqiy Semnan bilan bog'liq.

'toza' so'zini ifodalashda esa yuqoridagi holatning aksi kuzatiladi, ya'ni dariy tilida پاک /pâk/ o'z so'zi bilan ifoda etilsa, fors tilida arabcha تمیز /tamiz/ so'zi bilan ifodalanadi.

در جریان سال گذشته میلادی تقریباً نیمی از جمعیت افغانستان به قدری فقیر بودند که به نیازهای ضروری از جمله تغذیه و آب پاک دسترسی نداشتند.

/dar jarayâne sâle gozašteye melâdi taqriban nime az jamiyate afyânestân ba qadre faqir budand ke ba niyâzhâye zaruri az jomla tayziya wa âbe pâk dastrasi nadâštand/

O'tgan yili Afg'oniston aholisining deyarli yarmi shu qadar qashshoq ediki, ular oziq-ovqat va toza suv kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lmagan.

برای کاهش درد و ناراحتی از یک حوله تمیز، خنک و مرطوب روی محل تزریق استفاده کنید.

/barâye kâheše dard va nârâhati az yek huleye tamiz, xonak va martub ruye mahale tazriq estefâde konid/

Og'riq va noqulaylikni kamaytirish uchun in'ektsiya joyida toza, salqin, nam sochiqni ishlatilg.

'Viloyat' va 'toza' tushunchalarining dariy va fors tillarida ifodalanishini misollar tahlilida kuzatilganida, 'viloyat' tushunchasi dariy tilida arabcha so'z bilan ifodalanishi, fors tilida esa arabiy bo'lmagan so'z bilan ifodalanishi kuzatildi. 'Toza' tushunchasining ifodalanishi esa aksincha fors tilida arabcha o'zlashmada ifodalanib, dariy tilida arabcha bo'lmagan so'z yordamida ifodalanishi kuzatildi.

Dariy tilidagi bir qancha arabcha o'zlashmalar fors va dariy tillaridagi mushtarak so'zlardan farqli ma'noda qo'llanadi. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin: تکلیف /taklif/ dariy tilida 'qiyinchilik, tashvish' (fors tilidagi arabcha زحمت /zahmat/ so'zining ekvivalenti) ma'nosini bildiradi. So'z birikmalarda تکلیف دادن /taklif dâdan/ 'qiyinlashtirmoq, bezovta qilmoq', تکلیف دیدن /taklif didan/ 'qiyinchilik ko'rmoq, tashvish bo'lmoq' kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu ma'nolar fors tilida uchramasdan, farqli ravishda o'ziga xos bo'lgan, 'vazifa, majburiyat, burch' ma'nolarini bildaradi. O'z navbatida fors tilidagi ushbu ma'nolar dariy tilida uchramaydi. Quyida ushbu holat bo'yicha boshqa misollar bilan tanishib chiqamiz.

O'zlashma so'z	Dariy tilidagi ma'nosi	Fors tilidagi ma'nosi
تعمیر	bino, inshoot	ta'mir, biron narsa obyektini buzilgan, singan, yirtilgan joyini tuzatish
مکتب	ta'lim-tarbiya maskani	eski usuldagi ta'lim maskani
مصروف	mashg'ul, band	sarflangan, faydalanilgan
خیریت	tinchlik, omonlik	yaxshilik
تکلیف	og'riq, zahmat, tashvish	majburiyat, vazifa

خلاص	tugash, bitish	ozod bo'lish
صاحب	janob	ega
مدرسه	diniy ta'lim beradigan muassassa	ta'lim-tarbiya maskani

تعمیر /ta'mir/ so'zi dariy tilida 'bino, inshoot' ma'nosini anglatadi fors tilida 'ta'mir, biron narsa obyektini buzilgan, singan, yirtilgan joyini tuzatish' ma'molarini anglatadi.

... از چاپخانه این اداره که در تعمیر سابق وزارت داخله، چهارهی صدارت موقعیت دارد تسلیم شوند.

/az çâpxânaye in edâra ke dar ta'mire sâbeqe wazârate dâxela, çahârâhe sâderât mawqe'iyat dârad taslim şawand/

... Sadorat chorrahasida joylashgan Ichki ishlar vazirligining sobiq binosida joylashgan ushbu idoraning bosmaxonasiga kelishsin.

سرپرست شهرداری تبریز بر ضرورت تنظیف و پاکسازی منظم شهر و ضدعفونی، گندزدایی، تعمیر و نوسازی باکس ها و جای باکس های زباله تاکید کرد.

/sarparaste šahrdariye tabriz dar zarurate tanzif va pâksâziye montazame šahr va zedddeofuni, gandzedâyi, ta'mir va nousâziye bâkshâ va jâybâkshâye zobâle takid kard/

Tabriz hokimiyati rahbari shaharni muntazam tozalash va chiqindi qutillarini dezinfeksiya qilish, ta'mirlash va yangilash zarurligini ta'kidladi.

Keltirilgan misollar tahlilida arabcha o'zlashmalar o'zining u yoki bu ma'nosi bilan dariy va fors tillariga o'zlashib, ikkala tildagi o'ziga xos ma'nolarni kasb etishi, ushbu o'zlashmalarning turli xil sharoit va zamonda kirib kelganligini anglatadi. Zero so'z o'zlashtirayotgan til o'zlashma so'zning o'zidagi ehtiyojidan kelib, chiqqan holda o'zlashtiradi.

Maqolada keltirilgan misollar tahlilidan xulosa qilib aytish mumkinki til ijtimoiy hodisa va insonlararo muloqot vositasi sifatida doimiy harakatda bo'lib ijtimoiy vaz'iyat va zamon taqozosi bilan doimo yangilanish jarayonidadir va yana shuni ham ta'kidlash joizki, til ijtimoiy hodisa va insonlararo muloqot vositasi sifatida shunday so'z va iboralarni tanlaydiki so'zlashuvda ravon va ma'no jihatidan konkret bo'lsin.

Bu so'zlarimiz isbotini fors-dariy tili misolida ham ko'rishimiz mumkindir, zero fors-dariy tili o'zining zamon talabiga javob bera olmagan asl so'zlari o'rnini zamon talabiga mos keladigan arabcha o'zlashmalar bilan almashtirgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki bir tushunchani ifodalash uchun arab tilidan turli so'zlar dariy va fors tillariga o'zlashgan, ba'zida bir negizning turli xil shakllari o'zlashgan. Dariy tilidagi bir qancha arabcha o'zlashmalar fors va tojik tillaridagi mushtarak so'zlardan farqli ma'noda qo'llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алимова Х. Хоъжакулов Ю. Курбанова Г. Дарий тили. -Т.:Фан ва технология, 2018. -Б. 3.
2. Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари: Дисс. ...канд.фил.наук.-М., 2006. - С.16.
3. Киселева Л.Н. Очерки по лексикология языка дари. - М.: Наука, 1973. - С. 51

4. Островский Б.Я. Учебник языка дари. Часть 2.- М., 1986. - 392 с.
5. Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М.: МГИМО, 1959. - 414 с.
6. Ричард Ф. Наследие Ирана (Перев. сангл. В.А. Лившица и Е.В. Зеймаля) -М., 1972. -С.185.
7. Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка (Приложение к персидско-русскому словарю в двух томах под редакцией Ю.А.Рубинчика) - М., 1970. - С. 806.
8. Халидов Б.З. Арабские заимствования в современном литературном языке пушту. Дисс. ... канд. фил. наук- Л., 1953. - С. 195.
9. Шокиров О.З. Дарий тили (1-қисм). -Т.:ТошДШИ нашриёти, 2010. -Б. 4.
10. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. - Т.: Фан, 1987. - Б. 11.